Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

himoya qiladigan, ularning tobora o‘zaro bog‘liq va raqamlashtirilgan biznes muhitida rivojlanishiga imkon beradigan muhim sarmoyadir.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi ularning axborot xavfsizligi choralarining mustahkamligiga bog‘liq. Rivojlanayotgan tahdid ko‘lamini tushunish, keng qamrovli xavfsizlik tizimini birlashtirish, xavfsizlikni anglaydigan xodimlar madaniyatni rivojlantirish va tashqi qo‘llab-quvvatlashdan foydalangan holda, kichik biznes kiber tahdidlarga qarshi himoyani kuchaytirishi hamda raqobatbardosh bozorda iqtisodiy o‘sishi va barqarorligini ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arefieva, O.V., Kuzenko, T.B.: Planuvannia ekonomichnoi bezpeky pidpryiemsv (Planning of enterprise economic security). Vyd-vo Yevrop. un-tu, Kyiv (2005)

2. Хошимов П.З. Тадбиркорликнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш концепцияси ва тизими, Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2015, 11

3. Qosimov , S. D., & Akbarov , A. A. o‘g‘li. (2022). Kichik biznesda raqamli tadbirkorlik tendensiyalari: kecha va bugun. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century, 1(4), 208–212. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/conf/article/view/442

4. Ermatov A., Akbarov A. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятида иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. –2021. –No. 6. –C. 239-249.

5. Ibragimov N., Akbarov A. A. The role of cryptography in information security //Научные разработки: евразийский регион. –2017. –C. 107.

INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIU AF “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Muxiddinov Nazirjon Davronboy o‘g‘li
TDIU AF “Bank ishi audit” yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish asosida tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida «Bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish», shuningdek, «moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining

Published: 17.05.2024
Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Muxiddinov Nazirjon Davronboy o‘g‘li (2024). Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o‘rni. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/122
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

erkin resurslarini joylashtirishda muqobil manba sifatida investitsiya bozorini rivojlantirish» vazifalari belgilandi.

Globallashuv sharoiti mamlakatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini ham jadallashtirib yubordi. Bu sur’atlar ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, sport, qo‘yingki, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘z ifodasini topyapti. Bunday tendensiyalar, albatta, moliya bozorlari, tijorat banklari, moliyaviy mexanizmlar, xususan, investitsiyalar oqimi qiyofalarini mutlaqo o‘zgartirib yubordi.

Binobarin, bugun qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritayotgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishayotgani aksiomaga aylanib ulgurdi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.

O‘zbekiston Respublikasida esa keyingi yillarda tijorat banklarining investitsion faoliyati yirik aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini boshqarish, investitsiya va xususiylashtirish fondlari bilan ishlash jarayonlariga to‘g‘ri keladi.

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya institutining professional qatnashchisi sifatida ishtirok etadi va emissiya brokerlik, dilerlik faoliyatini bajaradi, qimmatli qog‘ozlar bilan savdolarni tashkil qildi. Hozirgi kunda tijorat banklari uzoq muddatli kreditlardan keng foydalanib, investitsion loyihalarni moliyalashtirishni amalga oshirmoqda. Lekin, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uzoq muddatli ko‘pgina mablag‘larni talab qilganligi sababli barcha tijorat banklari ham investitsion loyihalashtirish tizimidan foydalana olmaydi. Shunga qaramay, O‘zbekistonda juda ko‘plab moliyalashtirishni talab etadigan investitsiya loyihalari mavjud bo‘lib, ularni rivojlantirish mahalliy ishlab chiqarish darajasini yuksaltirishga olib keladi.

Tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimidagi ishtirokidan ko‘zlangan asosiy maqsad– bu foyda olishdir. Shu sababli mazkur maqsad bir qator quyidagi omillar bilan cheklanadi:

- risk ehtimoli;
- vaqtlar cheklovi;
- soliq bilan bog‘liq omillar.

Bank samarali investitsiya faoliyatining asosiy maqsadi, eng samarali va xatarsiz moliyaviy dastaklarni tanlab olish orqali investitsiya strate-giyasining amalga oshirilishini ta’minlash hisoblanadi.

Tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimidagi o‘rnini takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- tijorat tuzilmalarining kafolat talabini ta’minlash maqsadida kafolat-garov jamg‘armalari tizimini rivojlantirish;
- aholi bo‘sh pul mablag‘larini investitsiya jarayonlariga jalb qilish maqsadida qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikatlari va uy-joy obligatsiyalari);

- ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik qayta qurishni jadallashtirish maqsadida markazlashgan kredit resurslarining bir qismini tez qoplaydigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga qaratish, shu jumladan, kichik biznes ob’ektlariga yo‘naltirish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nokredit usullaridan – lizing, franchayzing, faktoring kabi turlaridan foydalanishni kengaytirish;
- investitsiya siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirishda yirik banklar boshqaruv tizimida o‘z tarkibida investitsiya dasturlarining turli masalalari bo‘yicha yuqori tajribaga ega bo‘lgan xizmatchilardan tashkil topgan investitsiya bo‘linmalarini yaratish va boshqalar.

Umumiy holda zamonaviy sharoitlarda investitsion faoliyatni jadallashtirish, uning samaradorligini oshirish uchun moliyalashning turli manbalaridan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi».
2. Qosimov M.S. Investitsiya loyihalar tahlili. (Darslik).- T., TDIU, 2019
3. https://xs.uz/uz/post/tizhorat-banklarining-samarali-investitsion-faoliyati-taraqqiyot-va-farovonlikning-muhim-omili
4. T.M.Karaliyev, O.B.Sattarov, I.F.Sayfiddinov Tijorat banklari faoliyati tahlili O‘quv qo‘llanma. Toshkent-Moliya 2013

DAVLATNING MAQSADLI JAMG`ARLARI VA ULARNING MOHIYATI

Qurbonov Jasurbek Fozilovich,
i.f.f.d, dotsent,
Foziljonov Azimiddin Asildin o’g’li,
TDIU Andijon fakulteti “Bank ishi va audit” yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Davlatning maqsadli jamg`armalari ahamiyati vazifalari tashkiliy-huquqiy asoslar haqida yoritib berilgan. Mamlakat miqyosida turli shakldagi moliyaviy resurslarning darajasi, jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida davlat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalar aks ettirilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Byudjet, jamg`armalar, davlat maqsadli jamg`armalari, xizmatlar ko`rsatuvchi ijtimoiy sohani qo`llab-quvvatlovchi jamg`armalar, iqtisodiy maqsadli jamg`armalar, iqtisodiyot yetakchi tarmoq va sohalar, qo`shimcha moliyaviy resurslar.*